

## O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA ISLOMIY MOLIYAVIY VOSITALARNI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

**Nuriddinova Sevinch Begzod qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti yo'nalishi magistranti.

**N. Sirajiddinov**

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20769872>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida islomiy moliyaviy vositalarni joriy etishning institutsional asoslari hamda ularning rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Global miqyosda islomiy moliya sektorining barqaror o'sishi, xususan sukuk bozori hajmining kengayishi muqobil moliyalashtirish mexanizmlariga bo'lgan talabni oshirmoqda.

Tadqiqotda islomiy moliyaning asosiy instrumentlari — sukuk, murabaha, ijara va musharaka — nazariy jihatdan yoritilib, O'zbekiston moliya tizimida ularni joriy etish imkoniyatlari statistik ma'lumotlar asosida baholandi. Shuningdek, normativ-huquqiy muhit, institutsional infratuzilma va kapital bozorining hozirgi holati tahlil qilinib, islomiy moliyaviy vositalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va istiqbollari asoslab berildi.

**Kalit so'zlar:** islomiy moliya, sukuk, murabaha, ijara, musharaka, kapital bozori, investitsiya instrumentlari, institutsional asoslar, barqaror moliyalashtirish, O'zbekiston iqtisodiyoti.

**Abstract.** This article analyzes the institutional foundations and development prospects of introducing Islamic financial instruments in the economy of Uzbekistan. The steady growth of the global Islamic finance sector, particularly the expansion of the sukuk market, has increased the demand for alternative financing mechanisms. The study provides a theoretical overview of the main Islamic financial instruments — sukuk, murabaha, ijara, and musharaka — and evaluates the possibilities of their implementation within Uzbekistan's financial system based on statistical data. Furthermore, the regulatory environment, institutional infrastructure, and the current state of the capital market are examined, and the economic efficiency and future prospects of introducing Islamic financial instruments are substantiated.

**Keywords:** Islamic finance, sukuk, murabaha, ijara, musharaka, capital market, investment instruments, institutional framework, sustainable financing, economy of Uzbekistan.

**Kirish.** So'nggi yillarda global moliya tizimida islomiy moliya sektori barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Islomiy moliya aktivlari hajmi trillion dollarlik segmentga yetib, ayniqsa sukuk bozori xalqaro kapital bozorining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Islomiy moliyalashtirishning asosiy tamoyillari — foizsiz moliyalashtirish, aktivga asoslangan operatsiyalar va riskni taqsimlash mexanizmlari — real sektor bilan bevosita bog'liqligi sababli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida ham moliya bozorini diversifikatsiya qilish, uzoq muddatli investitsion resurslarni jalb etish va real sektorni muqobil moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash dolzarb

vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda bank tizimi aktivlari hajmi sezilarli darajada oshgan bo‘lsa-da, kapital bozori hali chuqur rivojlanmagan. Shu nuqtai nazardan, islomiy moliyaviy vositalarni, xususan sukuk instrumentlarini joriy etish iqtisodiyotga qo‘shimcha investitsiya oqimini jalb etish imkonini beradi.

**Adabiyotlar sharhi.** Islomiy moliya nazariyasi va amaliyoti so‘nggi yillarda global miqyosda faol rivojlanib, muqobil moliyalashtirish modeli sifatida e‘tirof etilmoqda. Islamic Financial Services Board (IFSB) tomonidan e‘lon qilingan so‘nggi barqarorlik hisobotlarida qayd etilishicha, global islomiy moliya aktivlari hajmi trillion dollarlik ko‘rsatkichdan oshgan bo‘lib, sukuk bozori eng tez o‘sayotgan segment sifatida ajralib turadi (IFSB, 2023). Hisobotda sukuk davlat va infratuzilma loyihalarini uzoq muddatli moliyalashtirishda samarali instrument ekani ta’kidlanadi.

Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI) standartlarida islomiy moliyaning asosiy tamoyillari — riba (foiz) taqiqlanishi, aktivga asoslangan operatsiyalar va riskni taqsimlash mexanizmi — belgilab berilgan (AAOIFI, 2021). Mazkur standartlarga ko‘ra, sukuk an’anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda qarz majburiyati emas, balki real aktiv yoki loyiha asosida shakllanadigan investitsion ulush hisoblanadi.

Islomiy taraqqiyot banki (IsDB) tadqiqotlarida sukuk emissiyasi musulmon aholi ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda kapital bozorini diversifikatsiya qilish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim rol o‘ynashi ko‘rsatib o‘tilgan (IsDB, 2022). Shuningdek, sukuk davlat byudjeti defitsitini moliyalashtirish va infratuzilma loyihalarini qo‘llab-quvvatlashda qo‘llanilayotgani qayd etiladi.

O‘zbekiston sharoitida islomiy moliya masalasi mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham o‘rganilgan. Jumladan, N. Nazarov o‘z tadqiqotlarida O‘zbekiston moliya tizimida islomiy moliyalashtirishni joriy etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va institutsional infratuzilmani shakllantirish zarurligini asoslaydi. Muallifning fikricha, bozor islohotlari va kapital bozorini rivojlantirish jarayoni islomiy moliya instrumentlarini joriy etish uchun muayyan shart-sharoit yaratmoqda.

A. Asadov tomonidan olib borilgan empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston moliya bozorida sukuk instrumentlariga nisbatan potensial talab mavjud bo‘lib, bu instrument iqtisodiy inkluzivlikni kengaytirish hamda muqobil investitsiya manbalarini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqotda respondentlarning muhim qismi foizsiz moliyalashtirish modeliga qiziqish bildirgani qayd etilgan.

S. Umarov va hammualliflar tomonidan o‘tkazilgan izlanishlarda O‘zbekiston bank tizimida islomiy bank xizmatlarini joriy etishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari tahlil qilingan.

Mualliflar islomiy bank faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun Markaziy bank tomonidan maxsus regulyativ mexanizmlar ishlab chiqilishi lozimligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, ayrim mahalliy tadqiqotlarda islomiy moliya rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar sifatida huquqiy bo‘shliqlar, soliq rejimining moslashmaganligi va shariat nazorati institutining yo‘qligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, global miqyosda islomiy moliya, ayniqsa sukuk bozori, barqaror rivojlanayotgan bo'lsa-da, O'zbekiston iqtisodiyotida uni joriy etish masalasi hali tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, institutsional infratuzilma, normativ-huquqiy muhit va kapital bozorining tayyorgarlik darajasini chuqur o'rganish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda O'zbekiston iqtisodiyotida islomiy moliyaviy vositalarni joriy etishning institutsional asoslari va rivojlanish istiqbollarini baholash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot nazariy va empirik tahlil usullarining uyg'unligiga asoslanadi.

Birinchidan, nazariy-metodologik asos sifatida islomiy moliya tamoyillari, xususan AAOIFI va IFSB standartlari, shuningdek Islomiy taraqqiyot banki va xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari o'rganildi. Ushbu manbalar asosida sukuk, murabaha, ijara va musharaka instrumentlarining iqtisodiy mazmuni hamda ularning an'anaviy moliyaviy vositalardan farqi aniqlashtirildi.

Ikkinchidan, statistik tahlil usuli qo'llanilib, global sukuk bozori hajmi hamda O'zbekiston bank tizimi va kapital bozori ko'rsatkichlari o'rganildi. Ma'lumotlar manbai sifatida Islamic Financial Services Board (IFSB) hisobotlari, Islomiy taraqqiyot banki ma'lumotlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq statistik bazasi (cbu.uz)dan foydalanildi.

Dinamik qatorlar tahlili yordamida so'nggi yillardagi o'sish sur'atlari baholandi.

Uchinchidan, qiyosiy tahlil usuli asosida islomiy moliya rivojlangan mamlakatlar tajribasi O'zbekiston sharoiti bilan taqqoslandi. Bu yondashuv institutsional infratuzilma, huquqiy baza va kapital bozorining tayyorgarlik darajasini baholash imkonini berdi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida islomiy moliyaviy vositalarni joriy etish jarayoni iqtisodiy, huquqiy va institutsional omillar o'zaro bog'liqligida ko'rib chiqildi. Natijada sukuk instrumentini joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va investitsion salohiyati ilmiy asosda baholandi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash va O'zbekiston iqtisodiyotida islomiy moliyaviy vositalarni joriy etish istiqbollarini kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Global miqyosda islomiy moliya sektori so'nggi o'n yillikda barqaror va tizimli o'sish tendensiyasini namoyon etib, xalqaro moliyaviy arxitekturaning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Dastlab musulmon mamlakatlar doirasida shakllangan ushbu moliyaviy model bugungi kunda Yevropa, Osiyo va hatto AQSh kapital bozorlarida ham faol qo'llanilmoqda.

Islomiy moliya aktivlari hajmining izchil ortishi uning nafaqat diniy asoslangan alternativ model, balki real sektor bilan bevosita bog'langan barqaror moliyaviy tizim sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Islomiy moliya tizimining asosiy xususiyati — aktivga asoslangan moliyalashtirish, riskni taqsimlash va spekulativ operatsiyalarning cheklanishidir. Aynan shu omillar global moliyaviy inqirozlar sharoitida islomiy moliya institutlarining nisbatan barqarorroq faoliyat yuritishini ta'minlagani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan.

Shuning uchun ham ko‘plab davlatlar kapital bozorini diversifikatsiya qilish maqsadida islomiy moliyaviy instrumentlarni joriy etishga qiziqish bildirmoqda.


Xususan, sukuk bozori islomiy moliya sektorining eng tez rivojlanayotgan segmenti hisoblanadi. Sukuk — bu aktivga asoslangan qimmatli qog‘oz bo‘lib, an‘anaviy obligatsiyalardan farqli ravishda qarz majburiyatini emas, balki muayyan loyiha yoki aktivdagi ulushni ifodalaydi.

So‘nggi yillarda sukuk davlat qarzi instrumenti sifatida ham keng qo‘llanilib, infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda muhim manbaga aylangan. Ayrim mamlakatlarda sukuk davlat byudjeti defitsitini qoplashning asosiy vositalaridan biriga aylangan.

Islamic Financial Services Board (IFSB) hamda Islomiy taraqqiyot banki (IsDB) hisobotlari shuni ko‘rsatadiki, pandemiyadan keyingi davrda sukuk emissiyasi hajmi sezilarli oshgan. Davlatlar fiskal kengayish siyosatini amalga oshirish, infratuzilma investitsiyalarini ko‘paytirish va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish maqsadida sukuk instrumentidan faol foydalanmoqda. Shuningdek, yashil va barqaror (sustainable) sukuk emissiyasining ko‘payishi ushbu instrumentning ESG tamoyillari bilan uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi.

Sukuk bozorining yana bir muhim jihati — uning geografik diversifikatsiyasidir. Agar dastlab emissiya asosan Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida amalga oshirilgan bo‘lsa, bugungi kunda Markaziy Osiyo, Afrika va Yevropa mamlakatlarida ham sukuk emissiyasi kuzatilmoqda. Bu esa ushbu instrumentning universalligi va investitsion jozibadorligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, global ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, islomiy moliya, ayniqsa sukuk bozori, xalqaro kapital bozorining muhim va barqaror segmentiga aylangan. Quyida IFSB va IsDB ma’lumotlari asosida 2019–2023 yillar dinamikasi keltiriladi.



**1-diagramma. Global islomiy moliya va sukuk bozori dinamikasi (2019–2023)**  
(Manba: IFSB Stability Report, IsDB Statistics)

Diagramma ma'lumotlari global islomiy moliya sektorining faqat miqdoriy o'sishini emas, balki uning sifat jihatdan transformatsiyasini ham ko'rsatadi.

Birinchiidan, global islomiy moliya aktivlarining 2019–2023 yillar oralig'ida 2,88 trillion dollardan 3,38 trillion dollargacha oshishi ushbu sektorning barqaror institutsional rivojlanayotganini anglatadi. Bu o'sish oddiy kon'yunkturaviy tebranish emas, balki moliyaviy arxitekturaning tarkibiy kengayishidir. Islomiy banklar, takaful kompaniyalari va kapital bozoridagi sukuk instrumentlari o'rtasidagi integratsiya chuqurlashgan sari sektor ichki likvidlik va kapital aylanish mexanizmlarini mustahkamlab bormoqda.

Ikkinchiidan, muomaladagi sukuk hajmining 630 mlrd dollardan 890 mlrd dollargacha oshishi davlat qarzi va infratuzilma moliyalashtirish tuzilmasida sezilarli o'zgarish yuz berayotganini ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda davlat qarzining muayyan qismi sukuk orqali shakllantirilmoqda, bu esa fiskal siyosatni diversifikatsiya qilish imkonini bermoqda. Shuningdek, sukukning aktivga asoslangan tabiati real sektor bilan bog'liqlikni kuchaytiradi va spekulativ operatsiyalar ulushini kamaytiradi.

Uchinchiidan, yillik sukuk emissiyasi dinamikasi global makroiqtisodiy sharoitlarga sezgir ekanini ko'rsatadi. 2021-yildagi yuqori emissiya pandemiyadan keyingi tiklanish bosqichi va infratuzilma loyihalariga davlat investitsiyalarining oshishi bilan bog'liq. 2022-yilda foiz stavkalari oshishi va global moliyaviy bozorlarning beqarorlashuvi fonida emissiya pasaygan bo'lsa-da, 2023-yilda tiklanish kuzatilgan. Bu holat sukuk bozorining moslashuvchanligini va investorlarga nisbatan ishonch darajasining yuqoriligini tasdiqlaydi.

To'rtinchiidan, so'nggi yillarda yashil sukuk va barqaror sukuk segmentining kengayishi kuzatilmoqda. Bu ESG tamoyillarining islomiy moliya bilan uyg'unlashayotganini ko'rsatadi.

Natijada sukuk nafaqat diniy moliyalashtirish instrumenti, balki barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi moliyaviy vositaga aylanmoqda.

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bir nechta strategik xulosalarni beradi:

1. Kapital bozorini diversifikatsiya qilish zarurati. O'zbekiston kapital bozori hali chuqurlashmagan va uzoq muddatli resurslar yetishmovchiligi mavjud. Sukuk instrumenti davlat va yirik infratuzilma loyihalarini muqobil moliyalashtirish imkonini beradi.

2. Davlat qarzini boshqarish strategiyasini kengaytirish. Agar davlat qarz portfelining ma'lum qismi sukuk orqali shakllantirilsa, investorlar bazasi kengayadi va tashqi bozorlardan resurs jalb qilish imkoniyati ortadi.

3. Bank tizimi uchun yangi likvidlik manbai. Islomiy moliyaviy vositalar banklar uchun uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish mexanizmini yaratadi. Bu aktiv va passivlarni muvozanatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyati. Global sukuk bozori hajmi 200 mlrd dollarga yaqin yillik emissiyani tashkil etayotgan bir sharoitda, O'zbekiston ushbu segmentning hatto kichik ulushini jalb etishi ham sezilarli investitsion oqimni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, sukuk bozorining muvaffaqiyatli ishlashi uchun maxsus huquqiy va institutsional infratuzilma zarur.

Shariat nazorati kengashi, soliq neytralligi, aktivlarni maxsus maqsadli kompaniyalar (SPV) orqali strukturalash mexanizmi kabi elementlar mavjud bo‘lmasdan turib, sukuk emissiyasi samarali amalga oshirilmaydi. Biroq sukukni joriy etish masalasini faqat huquqiy omillar bilan cheklash yetarli emas. Uning iqtisodiy zarurati va moliyaviy salohiyatini baholash uchun davlat qarzi dinamikasi hamda infratuzilma investitsiya ehtiyojini tahlil qilish muhimdir.

<b>Ko‘rsatkich</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>
<b>Davlat qarzi (mlrd USD)</b>	29.2	32.9	34.9
<b>Davlat qarzining YAIMga nisbati (%)</b>	38.4	36.4	34.4
<b>Infratuzilma investitsiyalari (mlrd USD)</b>	6.5	7.8	8.9
<b>Tashqi qarz ulushi (%)</b>	84	82	80

**2-jadval. O‘zbekistonning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari (2021–2023)**

**(Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy bank ochiq ma’lumotlari)**

Jadval ma’lumotlari O‘zbekiston davlat moliyasida tarkibiy o‘zgarishlar yuz berayotganini ko‘rsatadi hamda sukuk instrumentini joriy etish zaruratini makroiqtisodiy nuqtai nazardan asoslaydi.

Avvalo, 2021–2023 yillar davomida davlat qarzining mutlaq hajmi 29,2 mlrd AQSh dollaridan 34,9 mlrd dollargacha oshgan. Qarzning YAIMga nisbati pasayish tendensiyasini namoyon etayotgan bo‘lsa-da, bu holat asosan iqtisodiy o‘sish sur‘atlari bilan izohlanadi. Mutlaq ko‘rsatkichning ortishi esa davlatning investitsion va ijtimoiy majburiyatlarini moliyalashtirish hajmi kengayib borayotganini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, qarz portfelining tuzilmasini diversifikatsiya qilish va uzoq muddatli, barqaror moliyalashtirish manbalarini shakllantirish strategik ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, infratuzilma investitsiyalarining 6,5 mlrd dollardan 8,9 mlrd dollargacha oshishi davlat tomonidan kapital xarajatlar ulushi kengayayotganini ko‘rsatadi. Energetika, transport-kommunikatsiya va kommunal xo‘jalik sohalarida amalga oshirilayotgan loyihalar uzoq muddatli moliyaviy resurslarni talab qiladi. An’anaviy obligatsiyalar yoki tashqi kreditlar orqali moliyalashtirish fiskal yukni oshirishi mumkin. Sukuk instrumenti esa aktivga asoslangan model orqali loyihalarning o‘z daromad manbalari hisobidan investorlarga to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi, bu esa byudjet bosimini nisbatan kamaytiradi.

Uchinchidan, davlat qarzining asosiy qismi tashqi manbalar hisobidan shakllanayotgani valyuta risklari va tashqi moliya bozorlariga qaramlikni kuchaytiradi. Tashqi qarz ulushining yuqoriligi milliy valyuta kursi tebranishlariga sezgirlikni oshiradi hamda qarzga xizmat ko‘rsatish xarajatlarini ko‘paytirishi mumkin. Shu jihatdan, sukuk instrumentini ichki va xalqaro investorlar uchun muqobil vosita sifatida joriy etish qarz portfelini valyuta va investorlar tarkibi bo‘yicha diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Umuman olganda, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar O‘zbekiston iqtisodiyotida uzoq muddatli va barqaror moliyalashtirish mexanizmlariga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi. Sukuk instrumenti davlat qarzini boshqarish strategiyasini kengaytirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni optimallashtirish hamda investorlar bazasini diversifikatsiya qilish nuqtai nazaridan iqtisodiy asoslangan vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

### **Xulosa va takliflar.**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, global miqyosda islomiy moliya sektori, xususan sukuk bozori barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etib, xalqaro kapital bozorining muhim segmentiga aylangan. Aktivga asoslangan moliyalashtirish, riskni taqsimlash va uzoq muddatli investitsion mexanizmlarga tayangan sukuk instrumenti infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda samarali vosita sifatida shakllangan.

O'zbekiston iqtisodiyoti tahlili esa davlat qarzi mutlaq hajmining oshib borayotgani, infratuzilma investitsiyalarining kengayishi va tashqi moliyalashtirish ulushining yuqoriligi sharoitida muqobil va diversifikatsiyalangan moliyaviy instrumentlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatdi. Bank tizimi va kapital bozori infratuzilmasi shakllangan bo'lsa-da, islomiy moliyaviy vositalarni joriy etish uchun maxsus huquqiy va institutsional baza yetarli darajada rivojlanmagan.

Tahlillar asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. **Maxsus normativ-huquqiy baza yaratish:** "Islomiy moliya to'g'risida" alohida qonun yoki amaldagi moliya va qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunchilikka tegishli o'zgartishlar kiritish zarur.

2. **Markaziy darajadagi shariat nazorati kengashini tashkil etish.**

Islomiy moliyaviy instrumentlarning shariatga muvofiqligini tasdiqlovchi mustaqil organ investorlar ishonchini mustahkamlaydi.

3. **Soliq neytralligini ta'minlash.** Sukuk instrumentlari an'anaviy obligatsiyalar bilan teng soliq sharoitida ishlashi lozim, aks holda iqtisodiy jozibadorlik pasayadi.

4. **SPV mexanizmini huquqiy jihatdan mustahkamlash.** Maxsus maqsadli kompaniyalar orqali aktivlarni ajratish va strukturalash mexanizmini aniq tartibga solish talab etiladi.

5. **Pilot sukuk emissiyasini amalga oshirish.** Dastlab energetika yoki transport sohasidagi yirik loyiha asosida tajriba tariqasida sukuk chiqarish maqsadga muvofiq.

6. **Investorlar bazasini kengaytirish.** Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari investorlarini jalb etish bo'yicha xalqaro moliyaviy hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Umuman olganda, O'zbekiston iqtisodiyotida islomiy moliyaviy vositalarni, xususan sukuk instrumentini joriy etish kapital bozorini chuqurlashtirish, davlat qarzini diversifikatsiya qilish va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq bu jarayon bosqichma-bosqich, puxta ishlab chiqilgan institutsional islohotlar asosida amalga oshirilishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Islamic Financial Services Board (IFSB). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023. Kuala Lumpur: IFSB.
2. Islamic Financial Services Board (IFSB). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2022. Kuala Lumpur: IFSB.
3. Islamic Development Bank (IsDB). Islamic Finance Development Report 2022. Jeddah: IsDB.

4. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Shari'ah Standards. Manama: AAOIFI, 2021.
5. International Monetary Fund (IMF). Islamic Finance: Opportunities, Challenges, and Policy Options. Washington, DC: IMF Working Paper, 2021.
6. World Bank Group & Islamic Development Bank. Global Report on Islamic Finance: A Catalyst for Shared Prosperity? Washington, DC: World Bank, 2017.
7. Asadov, A. (2024). Empirical Analysis of Demand for Sukuk in Uzbekistan. *Economies Journal (MDPI)*.
8. Umarov, S. va boshqalar. (2023). Implementing Islamic Banking in Uzbekistan: Legal and Economic Perspectives. Research paper.
9. Nazarov, N. (2023). Islamic Financing in Uzbekistan: Current Trends, Challenges and Prospects. *Tashkent State University of Economics Scientific Journal*.
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Yillik hisobot 2023. Toshkent: cbu.uz
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat qarzi bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar 2023. [finance.uz](http://finance.uz)
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2023 yillarda kapital bozorini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.